TSUE

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / OKTABR / 10-SON, VI-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, oktabr.
VI-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdikarimova Dinara Rustamxanovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:
Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdikarimova Dinara Rustamxanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich, katta o‘qituvchi (PhD)

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich, Senior Lecturer (PhD)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

АКТИВИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ТОРГОВЛЯ, ИНВЕСТИЦИИ, ПРОМЫШЛЕННОСТЬ И ИННОВАЦИИ 14
Хакимов Д. Р.
LOYIHA INTEGRATSIYASI VA REJALASHTIRISH MANTIQINI TAKOMILLASHTIRISH: LOYIHA MUVAFFAQIYATSIZLIGINING ASOSIY SABABLARI TAHLILI 23
Melibayeva Ma'mura Erkinovna
Turgunboeva Muxlisa Anvar qizi
Togayev Salim Sobirovich
TA'MINOT ZANJIRIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI: OPERATSION TEJAMKORLIK VA JARAYONLAR TRANSPARENTLIGI 28
Qudratova Ruxshona Farhod qizi
Rustamov Diyor Suhrob o'g'li
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА 32
Останова Машхура Эгамбердиевна
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA KREDITLASH VA JISMONIY SHAXSLARGA BANK XIZMATLARI KO'RSATISH HOLATINING TAHLILI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI 38
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich
ASSESSING THE ARCHAEOLOGICAL TOURISM POTENTIAL OF UZUNDARA FORTRESS AND IMPROVING STRATEGIES FOR ATTRACTING TOURISTS 43
Nomozova Rayhon Rustamovna
XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI 51
Kenjayeva Mahliyo Baxtiyorjon qizi
ANDIJON VILOYATI SANOATINING RIVOJLANISH HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI TAHLILI 57
Yoqubov Maqsud Valiyevich
INTERNATIONAL ECONOMIC INTEGRATION AND ECONOMIC GROWTH IN CENTRAL ASIA – PANEL DATA ANALYSIS – 2000-2024 62
Muhammad Eid Balbaa
SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARI NEGIZIDA SANOAT KORXONALARINING YASHIRIN INVESTITSIYA RESURSLARINI VA TARKIBIY XATARLARINI ALGORITMIK IDENTIFIKATSIYALASH USLUBIYOTI 69
Hojiqulova Feruza Dona qizi
SAMARQAND VILOYATIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: HUDUDIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR 76
Abdullayev Jamshid Obidovich
NEFT-GAZ KOMPANIYALARIDA KORPORATIV O'QITISH TIZIMINI TASHKIL ETISH FORMATINI BELGILASH 84
Kattaev Odilbek Serkayevich
BOŞQARUV SERVIS KOMPANIYALARINING FAOLIYATI EVOLYUTSIYASI VA MAJBURIY BADALLARNI UNDIRIŞ TIZIMINING ŞAKLLANIŞI VA RIVOJLANIŞI 91
Usarov Jurabek Abdunazirovich
O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 96
Turdieva Uzayda Omirbaevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH 104
Azizova Dilfuza Oltiboy qizi
Togayev Salim Sobirovich
SUV FONDI YERLARINI BALANSDA SAQLOVCHI SUV XO‘JALIGI TASHKILOTLARIGA RASMIYLASHTIRISH VA YER UCHASTKASIGA BO‘LGAN HUQUQNI DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TKAZISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 110
Minasipov Burxan Baxtiyorovich
DAVR XARAJATLARI HISOBINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLAŞTIRIŞ 115
M.B. Nizekeev
XALQARO AVTOMOBIL YÖLLARIDA MOTEL XIZMATLARINI TAŞKIL ETIŞ VA TAKOMILLAŞTIRIŞ YÖLLARI 119
TÖLQIN ŞAYMANOV
IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA INSTITUTSIONAL MUHIT TRANSFORMATSIYASI VA IQTISODIY AGENTLAR XULQ-ATVORINING MOSLASHUVI 126
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BAHOLASH 134
Otaboyeva Dildora Ilxomboy qizi
АССОРТИМЕНТНАЯ ПОЛИТИКА И ПОЗИЦИОНИРОВАНИЕ ПРОДУКЦИИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РАСШИРЕНИЯ МЕСТНОГО ПРОИЗВОДСТВА 140
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна
FINANCING THE FOREIGN TRADE ACTIVITY OF SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN. STRUCTURAL SHIFTS, INSTITUTIONAL ARCHITECTURE AND THE TRADE-FINANCE GAP 145
Ismailov Erkin Fakhretdinovich
CHAKANA KREDITLASHNING KENGAYISHI SHAROITIDA AHOLI QARZ YUKINI BAHOLASH VA UNING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA’SIRI 153
Tojimurodov Shohzod
JAHON MOLIYA TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA XALQARO MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA O‘ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR 160
Saimbetov Zinatdin Jalgasbayevich
Davletyarova Guldana
AKSIZ SOLIG‘INI UNDIRISH MEXANIZMINI O‘ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 169
Xolmurodov Asilbek Xusniddin o‘g‘li
JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASINING BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDA AHAMIYATI 175
Abdilaxatov Zafar Abdigapirovich
DIGITAL FISCAL INSTRUMENTS AND INCENTIVE-BASED FORMALIZATION OF THE SHADOW ECONOMY: METHODOLOGICAL IMPROVEMENTS FOR UZBEKISTAN 180
Ergasheva Malikakhon Avazkhon qizi
BARQARORLIK BO‘YICHA HISOBOTLARNI TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH 186
Zufarova Z.R.
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI INVESTITSION DIVERSIFIKATSIYALASH QOIDASI VA AKTIVLARNING 2030-YILGACHA BO‘LGAN SSENARIY PROGNOZI 190
Sharipova Dilfuza Jumaniyazovna
AUDITORLIK FAOLIYATIDAN SÖNG BERILGAN TAVSIYALARNI AMALGA OŞIRIŞ VA MONITORING 195
Akromov Şohrux Şuhrat öğli
MAMLAKATIMIZDA YASHIL BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202
Axmedov Oybek Turgunpulatovich

TELERADIOKOMMUNIKATSIYA KORXONALARIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODELLARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH 207
Xusanov Ulug‘bek Nishonovich
EKONOMETRIK MODEL ASOSIDA NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION FAOLIYATI IQTISODIY SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH 212
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich
ВОПРОСЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ 222
Худайберганова Зарофат Захидовна
DAVLAT XARIDLARIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI BOSHQARISH VA TADBIRKORLAR UCHUN TENG SHAROIT 230
Axmedjanov Sardorbek Anvarovich
INNOVATSION EKOTIZIMDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI, BIZNES VA DAVLAT HAMKORLIGI ASOSIDA TEXNOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH 234
Raxmatov Jasurbek Abduraxmonovich
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA YOSHLAR MEHNAT BOZORI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI 241
Xolmuxamedov Muxsinjon Murodullayevich
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 246
Axmedjanov Sardorbek Anvarovich
BARQAROR RIVOJLANISHDA INSON KAPITALINING O‘RNI 251
Yuldoshboy Sobirov

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BARQAROR RIVOJLANISHDA INSON KAPITALINING O‘RNI

Yuldoshboy Sobirov
Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Iqtisodiyot fakulteti, Mamun universiteti, O‘zbekiston
E-mail: sobirov_yuldoshboy@mamunedu.uz

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the role of human capital in sustainable regional development. It examines the mechanisms through which human capital influences the three pillars of sustainable development: economic, social, and environmental. Drawing on new economic geography and regional growth theories, the article explores the effects of human capital on territorial competitiveness, the formation of innovation clusters, and agglomeration effects. Based on R. Putnam’s social capital theory and A. Sen’s capability approach, it analyzes the contribution of human capital to social equity and inclusive development, as well as its role in environmental sustainability through the concept of “green” human capital. The article also examines interregional inequalities in human capital and their relationship to the Sustainable Development Goals (SDGs), offering practical recommendations for regional policy.

Keywords: human capital, sustainable development, regional economics, social capital, capability approach, green economy, territorial inequality, Sustainable Development Goals.

Annotatsiya. Maqolada inson kapitalining mintaqani barqaror rivojlantirishdagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilingan. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining uch ustuni — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlar bo‘yicha inson kapitalining ta’sir mexanizmlari alohida ko‘rib chiqilgan. Yangi iqtisodiy geografiya va mintaqaviy o‘sish nazariyalari asosida inson kapitalining hududiy raqobatbardoshlik, innovatsion klasterlarning shakllanishi va aglomeratsiya samaralariga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, R. Patnemning ijtimoiy kapital nazariyasi va A. Senning imkoniyatlar (capability) yondashuvi asosida inson kapitalining ijtimoiy tenglik va inklyuziv rivojlanishga qo‘shgan hissasi hamda “yashil” inson kapitali tushunchasi orqali uning ekologik barqarorlikka ta’siri tahlil qilingan. Maqolada mintaqalararo inson kapitali tengsizligi muammosi va uning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqilib, hududiy siyosat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, barqaror rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiyot, ijtimoiy kapital, imkoniyatlar yondashuvi, yashil iqtisodiyot, hududiy tengsizlik, Barqaror rivojlanish maqsadlari.

Аннотация. В статье представлен теоретический анализ роли человеческого капитала в устойчивом развитии региона. Рассмотрены механизмы влияния человеческого капитала на три составляющие устойчивого развития: экономическую, социальную и экологическую. На основе новой экономической географии и теорий регионального роста раскрыто влияние человеческого капитала на территориальную конкурентоспособность, формирование инновационных кластеров и агломерационные эффекты. Опираясь на теорию социального капитала Р. Патнэма и концепцию возможностей А. Сена, проанализирован вклад человеческого капитала в социальное равенство и инклюзивное развитие, а также его роль в экологической устойчивости через концепцию «зелёного» человеческого капитала. Рассмотрены межрегиональное неравенство человеческого капитала и его связь с Целями устойчивого развития (ЦУР), предложены практические рекомендации для региональной политики.

Ключевые слова: человеческий капитал, устойчивое развитие, региональная экономика, социальный капитал, концепция возможностей, зелёная экономика, территориальное неравенство, Цели устойчивого развития.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyasi tobora ko‘proq “barqaror rivojlanish” paradigmasi asosida shakllanmoqda. Bunda iqtisodiy o‘sish yagona maqsad emas, balki ijtimoiy adolat va ekologik muvozanat bilan uyg‘unlashtirilgan holda ko‘rib chiqiladi. 1987-yilda Brundtland komissiyasi tomonidan taqdim etilgan ta’rifga ko‘ra, barqaror rivojlanish — bu “hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga putur yetkazmasdan qondirish” jarayonidir[1]. Ushbu konsepsiya 2015-yilda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi (BRM) orqali amaliy dasturga aylantirildi[2].

Barqaror rivojlanishning uch ustuni — iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik — markazida bevosita yoki bilvosita inson turadi. Inson kapitali, ya'ni aholining bilim, ko'nikma, sog'liq va qadriyatlari majmui nafaqat iqtisodiy o'sishning, balki ijtimoiy uyushqoqlik va ekologik ongning ham asosiy manbai hisoblanadi. Ayniqsa, mintaqaviy darajada inson kapitalining sifati va taqsimoti hududlararo rivojlanish tengsizligini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biriga aylanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — inson kapitalining mintaqani barqaror rivojlantirishning uchala ustuniga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini nazariy jihatdan tizimlashtirish, mintaqaviy iqtisodiyot nazariyalari doirasida uning o'rnini aniqlash hamda hududiy siyosat uchun amaliy xulosalar chiqarishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish va inson kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar bir necha ilmiy yo'nalishda rivojlangan. A. Sen (1999) "Rivojlanish erkinlik sifatida" (Development as Freedom) asarida ishlab chiqqan imkoniyatlar (capability) yondashuvi rivojlanishni faqat daromad o'sishi sifatida emas, balki insonning o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish erkinligi sifatida talqin qilib, inson kapitalini rivojlanishning vositasi emas, balki uning maqsadi sifatida ko'rish zarurligini asosladi[3]. Bu yondashuv BMT Taraqqiyot dasturining inson taraqqiyoti konsepsiyasiga asos bo'ldi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida P. Krugman (1991) tomonidan asos solingan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi[4] ishlab chiqarish kuchlari va malakali ishchi kuchining hududiy jamlanishi (aglomeratsiyasi) mintaqaviy rivojlanish farqlarini qanday keltirib chiqarishini ko'rsatdi. M. Porter (1990, 1998) o'zining raqobatbardosh ustunlik va klasterlar nazariyasida[5] mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy manbai sifatida yuqori malakali inson kapitali va uning innovatsion klasterlar atrofida jamlanishini ko'rsatdi. R. Patnem (1993) ijtimoiy kapital nazariyasida[6] hududiy jamoalar o'rtasidagi ishonch, o'zaro hamkorlik normalari va fuqarolik ishtiroki darajasi mintaqaviy institutlar samaradorligi hamda iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan asosladi.

Shu bilan birga, inson kapitalining barqaror rivojlanishning barcha uch ustuniga (iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik) bir vaqtning o'zida ta'sirini yaxlit nazariy modelga birlashtirgan, xususan, mintaqaviy darajadagi kompleks tadqiqotlar ilmiy adabiyotda hali yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa ushbu maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo'lib, uning metodologik asosini barqaror rivojlanish nazariyasi, inson kapitali nazariyasi, yangi iqtisodiy geografiya va ijtimoiy kapital nazariyasining fundamental qoidalari tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, tasniflash va ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv inson kapitalining barqaror rivojlanishning uchala ustuniga ta'sirini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini bersa, tasniflash usuli orqali ta'sir mexanizmlari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik kanallarga ajratilib, tahlil qilindi. Maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va uning nazariy asoslari

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi klassik iqtisodiy o'sish tushunchasidan tubdan farq qiladi, chunki u faqat moddiy boylik va yalpi ichki mahsulot o'sishini emas, balki uch ustunning — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo'nalishlarning uzoq muddatli muvozanatini nazarda tutadi. Iqtisodiy ustun resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy ustun — adolat, tenglik va hayot sifatini, ekologik ustun esa tabiiy resurslar va ekotizimlarni asrab-avaylashni anglatadi. Ushbu uchala ustun bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning birortasini e'tiborsiz qoldirish uzoq muddatli rivojlanish barqarorligiga putur yetkazadi.

Mintaqaviy darajada barqaror rivojlanish tushunchasi yanada murakkab mazmun kasb etadi, chunki u nafaqat milliy, balki hududlararo tengsizlik, mahalliy resurslardan foydalanish va hududiy o'ziga xosliklarni ham hisobga olishni talab qiladi. Aynan shu nuqtada inson kapitali — uning sifati, taqsimoti va rivojlanish darajasi — mintaqaviy barqaror rivojlanishning markaziy omiliga aylanadi.

2. Mintaqaviy rivojlanish nazariyalarida inson kapitalining o'rni

Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasiga ko'ra (P. Krugman, 1991), iqtisodiy faoliyat makonda notekis taqsimlanadi va malakali ishchi kuchi hamda innovatsion kompaniyalar muayyan hududlarda jamlanish (aglomeratsiya) tendensiyasiga ega bo'ladi[4]. Bu jamlanish, o'z navbatida, bilim almashinuvi, mahsuldorlikning

oshishi va yangi investitsiyalarni jalb etish orqali “kumulyativ sabab-oqibat” mexanizmini ishga tushiradi — inson kapitaliga boy hududlar yanada rivojlanib boradi, inson kapitali nisbatan kam hududlar esa malakali kadrlarni yo‘qotish va rivojlanish sur’atlarining sekinlashishi xavfiga duch keladi.

M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan mintaqaviy klasterlar nazariyasi[5] bu jarayonni yanada aniqroq izohlaydi: mintaqaviy raqobatbardoshlik alohida korxonalarga emas, balki geografik jihatdan yaqin joylashgan, o‘zaro bog‘liq korxonalar, ta’lim muassasalari va tadqiqot institutlaridan iborat klasterlar samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, bunday klasterlarning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, mintaqada mavjud yuqori malakali inson kapitali zaxirasi bilan belgilanadi. Shu tariqa, inson kapitali nafaqat ishlab chiqarish omili, balki mintaqaviy iqtisodiy makonni shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Inson kapitalining iqtisodiy ustunga ta’siri

Inson kapitalining barqaror rivojlanishning iqtisodiy ustuniga ta’siri, avvalo, mehnat unumdorligining oshishi, innovatsion faollikning kuchayishi va mintaqaviy raqobatbardoshlikning ortishi orqali namoyon bo‘ladi. Yuqori malakali ishchi kuchi zamonaviy texnologiyalarni tezroq o‘zlashtiradi, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratadi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyotning tashqi omillarga (masalan, xomashyo narxlarining o‘zgarishiga) bog‘liqligini kamaytirib, uning barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, diversifikatsiyalashgan va yuqori malakali mehnat bozori mintaqaning iqtisodiy zarbalarga (shoklarga) chidamliligini, ya’ni iqtisodiy barqarorlikning muhim shartlaridan birini ta’minlaydi.

4. Inson kapitalining ijtimoiy ustunga ta’siri

Inson kapitalining ijtimoiy ustunga ta’sirini tushunishda A. Senning imkoniyatlar (capability) yondashuvi[3] va R. Patnemning ijtimoiy kapital nazariyasi[6] muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Sen nazariyasiga ko‘ra, rivojlanishning haqiqiy maqsadi — insonlarning o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish erkinligini kengaytirishdir. Bunda ta’lim va sog‘liq sifatidagi inson kapitali shunchaki iqtisodiy vosita emas, balki rivojlanishning bevosita maqsadi sifatida qaraladi. Bu nuqtayi nazardan, mintaqada sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini ta’minlash o‘z-o‘zidan barqaror rivojlanishning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

R. Patnem tadqiqotlari esa inson kapitalining boshqa muhim qirrasi — ijtimoiy kapitalni ochib beradi: bir-biriga ishongan, hamjihatlik va o‘zaro yordam normalariga ega jamoalar institutlarning samaraliroq ishlashini, fuqarolarning mahalliy boshqaruvda faolroq ishtirok etishini va natijada ijtimoiy barqarorlikning yuqoriroq darajasini ta’minlaydi. Yuqori inson kapitaliga ega mintaqalarda, odatda, ijtimoiy kapital darajasi ham yuqori bo‘ladi. Bu ikkala omil birgalikda mintaqaning ijtimoiy uyushqoqligi va nizolarga chidamliligini oshiradi.

5. Inson kapitalining ekologik ustunga ta’siri

Inson kapitalining ekologik barqarorlikka ta’siri nisbatan yangi, ammo tobora ahamiyat kasb etayotgan tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda “yashil inson kapitali” (green human capital) tushunchasi shakllanmoqda. Bu aholining ekologik bilimi, resurs tejamkorligi ko‘nikmalari va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatini anglatadi. Yuqori ekologik ongga ega, resurs tejamkor texnologiyalarni yarata oladigan va joriy eta oladigan malakali kadrlar zaxirasi mintaqaning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ifloslanishni kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish salohiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biridir.

Shu bilan birga, ta’lim darajasining o‘sishi bevosita ekologik ongning yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu, o‘z navbatida, jamiyatning yashil texnologiyalarga bo‘lgan talabini va ekologik siyosatni qo‘llab-quvvatlash darajasini oshiradi. Shunday qilib, inson kapitali ekologik barqarorlikning nafaqat vositasi (yashil texnologiyalarni yaratuvchi kuch sifatida), balki uning ijtimoiy-madaniy negizi (ekologik ong va qadriyatlar tashuvchisi sifatida) ham hisoblanadi.

6. Mintaqalararo inson kapitali tengsizligi muammosi

Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida ta’kidlanganidek, inson kapitalining hududiy taqsimoti tabiatan notekis bo‘lib, bu tendensiya vaqt o‘tishi bilan kuchayish xavfiga ega. Yirik shaharlar va rivojlangan mintaqalar yuqori ish haqi, yaxshi ta’lim va infratuzilma imkoniyatlari hisobiga malakali kadrlarni o‘ziga tortadi (“brain drain” effekti). Bu esa periferik va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan mintaqalarda inson kapitali sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Natijada mintaqalararo rivojlanish tafovutlari yanada chuqurlashishi mumkin. Bu esa barqaror rivojlanishning asosiy tamoyili — “hech kimni ortda qoldirmaslik” (leave no one behind) tamoyiliga zid keladi[2].

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun hududiy siyosat nafaqat mintaqaviy infratuzilma va investitsiyalarni rivojlantirishga, balki, birinchi navbatda, mahalliy ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari sifatini oshirishga, shuningdek, malakali kadrlar uchun mahalliy darajada munosib ish o‘rinlari yaratishga qaratilishi lozim. Bu hududlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

7. Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlik

2015-yilda qabul qilingan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadining (BRM) kamida to‘rttasi bevosita inson kapitaliga taalluqli: BRM-4 (Sifatli ta’lim), BRM-3 (Sog‘lom turmush tarzi), BRM-8 (Munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish) hamda BRM-10 (Tengsizlikni qisqartirish)[2]. Bundan tashqari, qolgan maqsadlarning aksariyati (masalan, BRM-9 — sanoat, innovatsiya va infratuzilma yoki BRM-11 — barqaror shahar va aholi punktlari) ham bilvosita

malakali inson kapitali mavjudligini talab qiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, inson kapitaliga investitsiyalar barqaror rivojlanish arxitekturasining nafaqat bir qismi, balki uning ko‘p jihatdan poydevori hisoblanadi. Sifatli inson kapitali boshqa BRMlarga erishish samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Inson kapitali mintaqani barqaror rivojlantirishning barcha uch ustuniga — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlarga — bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatadigan universal omil hisoblanadi. Bu uni mintaqaviy barqaror rivojlanish siyosatining markaziy elementiga aylantiradi.

2. Yangi iqtisodiy geografiya va klasterlar nazariyasiga ko‘ra, inson kapitali mintaqaviy raqobatbardoshlik va innovatsion salohiyatning asosiy manbai bo‘lib, uning hududiy jamlanishi kumulyativ rivojlanish farqlarini keltirib chiqaradi.

3. A. Sen va R. Patnem nazariyalariga asoslanib, inson kapitalini nafaqat iqtisodiy o‘sish vositasi, balki ijtimoiy adolat va jamoaviy ishonchni shakllantiruvchi bevosita maqsad sifatida ham ko‘rib chiqish zarur.

4. “Yashil inson kapitali” konsepsiyasi inson kapitalining ekologik barqarorlikka ta’sirini asoslab, mintaqaviy ta’lim siyosatiga ekologik komponentni integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

5. Mintaqalararo inson kapitali tengsizligi barqaror rivojlanishning “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga tahdid solib, uni bartaraf etish uchun mahalliy ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik tizimlarini kompleks rivojlantirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasi inson kapitalini rivojlantirishni nafaqat iqtisodiy o‘sish vositasi, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikning ham asosiy sharti sifatida ko‘rishi lozim. Kelgusi tadqiqotlarda inson kapitalining mintaqaviy barqaror rivojlanish indeksiga ta’sirini ekonometrik jihatdan miqdoriy baholash dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Commission on Environment and Development. Our Common Future (The Brundtland Report). — Oxford: Oxford University Press, 1987. — URL: https://www.unccd.int/resources/unccd-library/our-common-future.
2. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. — New York: United Nations, 2015. — Resolution A/RES/70/1. — URL: https://digitallibrary.un.org/record/3923923/.
3. Sen A. Development as Freedom. — New York: Alfred A. Knopf, 1999.
4. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. — 1991. — Vol. 99, No. 3. — P. 483–499. — DOI: https://doi.org/10.1086/261763.
5. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990. — URL: https://books.google.com/books/about/The_Competitive_Advantage_of_Nations.html?id=PB66AAAAIAAJ; Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. — 1998. — Vol. 76, No. 6. — P. 77–90. — URL: https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition.
6. Putnam R. D., Leonardi R., Nanetti R. Y. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. — Princeton: Princeton University Press, 1993. — DOI: https://doi.org/10.2307/j.ctt7s8r7.
7. Schultz T. W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. — 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17. — URL: https://www.jstor.org/stable/1818907.
8. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: National Bureau of Economic Research; Columbia University Press, 1964. — URL: https://www.nber.org/books-and-chapters/human-capital-theoretical-and-empirical-analysis-special-reference-education-first-edition.
9. Romer P. M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. — 1990. — Vol. 98, No. 5, Part 2. — P. S71–S102. — DOI: https://doi.org/10.1086/261725.
10. World Bank. The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future. — Washington, DC: World Bank, 2021. — URL: https://www.worldbank.org/en/publication/changing-wealth-of-nations.
11. OECD. OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities. — Paris: OECD Publishing, 2023. — DOI: https://doi.org/10.1787/92cd40a0-en.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 10/6

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz